




O'zbekiston Ekologik
partiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga
o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – ommabop jurnal

**“YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH VA EKOLOGIK
BARQAROR RIVOJLANISH BOSQICHLARIDA
ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI
SHAKLLANTIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

2025-YIL 3-DEKABR

**Republican Scientific–Practical Conference
“CHALLENGES IN DEVELOPING ADVANCED
ENGINEERING SCHOOLS FOR GREEN ECONOMY
AND ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY”**

3 DECEMBER 2025

**Республиканская научно-практическая конференция
«ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ
ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ»**

3 ДЕКАБРЯ 2025 ГОДА

10-MAXSUS SON



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 222 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

OLIV TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH.....	8
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich	
“YASHIL ENERGETIKA” – O‘ZBEKISTONNING YASHIL VA SOG‘LOM KELAJAGI IQTISODIYOTIMIZNING YANGI DRAYVERI.....	11
Abdushukur Hamzayev	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI.....	14
Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH: IQTISODIY, EKOLOGIK VA IJTIMOY TRANSFORMATSIYA YO‘NALISHLARI.....	17
Xofizov Baxriddin Turdievich, Raximov Oybek Raimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	21
Muxiddin Kalonov	
YASHIL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA SOLIQ MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	25
Xudoyqulov Sadriddin Karimovich	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ASOSIDA “YASHIL O‘SISHNI” TA‘MINLASH: MUOMMO VA YECHIMLAR.....	28
Makhmudov Nosir Makhmudovich	
YASHIL OBLIGATSIYALAR: IQTISODIY FAOLLIK VA HISOB YURITISHNING DOLZARB MASALALARI.....	32
Norboy G‘anievich Karimov	
O‘ZBEKISTONDA “YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQAROR RIVOJLANISHDA ILG‘OR MUHANDIS MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA EKOLOGIK TA‘LIM MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”.....	35
Nazarov Xolmurod	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA TEXNOPARKLARNING AHAMIYATINI AKADEMIK TA‘LIM JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Sanjarbek Mirzaliyev Maxamatjon o‘g‘li	
KO‘P YILLIK DARAXTLARNI XATLOVDAN O‘TKAZISH, RAQAMLASHTIRISH VA ILMIY BAHOLASH TIZIMI: EKOLOGIK MONITORING VA SHAHARNING YASHIL INFRASTRUKTURASINI BOSHQARISH UCHUN ILG‘OR MODEL.....	44
Pirmuhamedov Ulug‘bek Botirovich	
MUMKIN BO‘LGAN MUQOBIL SUV MANBASI SIFATIDA YOMG‘IR SUVLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	47
Khursanov Kamol Erkinovich	
HUDUDLARNING XUSUSIYATLARI ASOSIDA IJTIMOY HIMOYA XARAJATLARINI DIFFERENSIAL MOLIYALASHTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH.....	50
Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li	
INDUSTRIYAL SANOAT EHTIYOJLARIGA MOS, INNOVATSIYALAR YARATISHGA QODIR MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA “YASHIL” IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI.....	53
Sherzod Qurbonov	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB‘EKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISHDA YASHIL BUXGALTERIYANING ROLI.....	59
Tashmanov G‘olib Davronovich	
YASHIL BUXGALTERIYA VA YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK DOLZARBLIGI.....	63
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	



EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI	66
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	69
Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
АРХИТЕКТУРНЫЕ ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ БЕЗОПАСНЫХ И ДОСТУПНЫХ ВЕЛОДОРОЖЕК В УСЛОВИЯХ ПЛОТНОЙ ГОРОДСКОЙ ЗАСТРОЙКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	72
Абдуллаева Ситорабону Хасанжон кизи	
YASHIL MOLYAVIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING EKOLOGIK INFRATUZILMA MODERNIZATSIYASIDAGI ROLI	74
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ДО 2030 ГОДА.....	77
Алимova Азиза Шерзатовна	
SANOATDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLAR	83
Abdullaev Elyorbek Odiljon o'g'li	
MODA SANOATIDA YASHIL MARKETING VA ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISH.....	87
Ahmadjonova Rayhona Jasurbek qizi	
YASHIL ERP TIZIMLARINING KORXONALARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA MARKETING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	91
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA YASHIL MARKETINGDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI QO'LLASH	95
Boltayeva Sitara Mirdjonovna	
HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI	99
Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich	
OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH	103
Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich	
YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA AGROMARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MEVA SABZAVOT BOZORIDAGI NARX BARQARORLIGI MODELI	107
Isroilov Abdurashid Abduraxmanovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	112
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOSLASHGAN ILG'OR YONDASHUVLARI	115
Radjabov Bunyod Abdusalilovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	119
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY TOLALARDAN FOYDALANISHDA BARQAROR TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	122
Raximov Furqat Jalolovich	
TIJORAT BANKLARIDA OMONAT HAJMINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING ROLI	126
Raximov Shoxrux Furqatovich	
PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	130
Tadjiev Sa'dulla Muhitdinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORLARIDA YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA MARKETING STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	134
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	



ФИНАНСОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И МЕЖДУНАРОДНОЕ КРЕДИТОВАНИЕ В КОНТЕКСТЕ ЗЕЛЁНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	138
Арзумян Стелла Юрьевна	
XODIMLAR FAOLIYATINI VAHOLASHDA KPI ASOSIDAGI RAQAMLI PLATFORMANI JORIY ETISHNING IQTISODIY, TASHKILY VA TEXNOLOGIK SAMARADORLIGI.....	144
Shuhratov Ma'murjon Shuhrat o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KPI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING RAQAMLI MODELI	147
Shuhratov Ma'murjon Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTON MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM SHARTLARI.....	150
Murodbek Boltaboyev	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	154
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
TOVARLARNI ILGARI SURISHDA EKO MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	157
Sobiroz Azizbek Avazbekovich, Erkinova Adolat Karim qizi	
HAVO IFLOSLANISHINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI VA YASHIL IQTISODIYOT O'RNI: SAMARADORLIK VA SIYOSIY QARORLAR.....	160
Saloxidinov Jahongir Alisher o'g'li	
CHILONJIDA (ZIZIPHUS JUJUBA) O'SIMLIGINING SHAMOLGA TA'SIRI: MORFO-FIZIOLOGIK MEXANIZMLAR VA AGROEKOLOGIK ASOSLARI	163
Yakubjonova Nodiraxon Avaxxon qizi	
TOSHKENT SHAXRINI YASHIL MAKON (ZONA) QILISH LOYIHASI ISHLAB CHIQUISH	166
Xushboqov Bobur	
YASHIL ENERGETIKA ASOSIDA INTELLEKTUAL TEMIR YO'L TARMOQLARIDA ELEKTR ENERGIYANI BOSHQARISH TIZIMLARI: EKOLOGIK BARQARORLIK VA OPTIMAL INTEGRATSIYA YECHIMLARI	169
Olimjon Toirov, Shohruh Azimov	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	175
Jumanazar Xolmuminov	
STATISTICAL ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING CREDIT INTEREST RATES IN COMMERCIAL BANKS.....	175
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
MAMLAKATIMIZDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I VA UNI PROGNOZ QILISH USULLARI	178
Sobirova Nigora Baxtiyor qizi	
OROLBO'YI HUDUDIDA YOSHLAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIMNING ROLI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	182
Isoqulova Munisa Muhammad qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL INNOVATSIYALAR HAMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR	186
Raimov Suhrob Jahongir o'g'li	
TIJORAT BANKLARNING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLAR	189
Abduganiyeva Gulzada Tolkinovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	192
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich	
AKSIZ SOLIG'IGI STAVKALARINI INDEKSATSIYA QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	196
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING RIVOJLANISHI	199
Mamadiyev Elyor Akmalovich	
АРХИТЕКТУРНО-ПРОСТРАНСТВЕННАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ УЛИЦ.....	202
Хаитов С.И.	
DORIVOR O'SIMLIKLAR XOM ASHYOSINING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	205
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA TENGSIZLIKNING KUCHAYISHI: SABABLAR VA OQIBATLAR.....	208
Fayziyeva Dilso'z Bahodirovna	



FARG'ONA VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLIL QILISH VA BAHOLASH.....	212
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	216
Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich	



TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich

“Davlat belgisi” MCHJda yetakchi auditori
Tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida raqamli marketing strategiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlar marketingi, elektron pochta marketingi, qidiruv tizimlarini optimallashtirish (SEO) va kontekstli reklama (PPC) kabi raqamli marketing vositalari baholangan. Tahlil natijalari bank sektorida raqamli marketing investitsiyalarining rentabelligini (ROI) aniqlash imkonini beradi. Xulosa o'laroq, tijorat banklari uchun raqamli transformatsiya sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, tijorat banklari, iqtisodiy samaradorlik, ROI, mijozlarni jalb qilish xarajati, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, SEO, elektron pochta marketingi.

Abstract. This article analyzes the economic effectiveness of using digital marketing strategies in commercial banks. Within the scope of the study, various digital marketing tools such as social media marketing, email marketing, search engine optimization (SEO), and pay-per-click advertising (PPC) were evaluated. The analysis results make it possible to determine the return on investment (ROI) of digital marketing in the banking sector. In conclusion, recommendations were developed to enhance the competitiveness of commercial banks in the context of digital transformation.

Key words: digital marketing, commercial banks, economic effectiveness, ROI, customer acquisition cost, social media marketing, SEO, email marketing.

Аннотация. В данной статье проанализирована экономическая эффективность использования стратегий цифрового маркетинга в коммерческих банках. В рамках исследования были оценены такие инструменты цифрового маркетинга, как маркетинг в социальных сетях, email-маркетинг, поисковая оптимизация (SEO) и контекстная реклама (PPC). Результаты анализа позволяют определить рентабельность инвестиций (ROI) в цифровой маркетинг в банковском секторе. В заключение разработаны рекомендации по повышению конкурентоспособности коммерческих банков в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, коммерческие банки, экономическая эффективность, ROI, стоимость привлечения клиентов, маркетинг в социальных сетях, SEO, email-маркетинг.

KIRISH

Zamonaviy bank sektorida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi an'anaviy marketing yondashuvlarini tubdan o'zgartirib yubormoqda. DemandSage ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda global raqamli marketing bozori 363,05 mlrd AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2032-yilga kelib bu ko'rsatkich 1 099,33 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [1]. Ushbu tendensiya moliya sektori, jumladan, tijorat banklari uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki mijozlar bilan o'zaro aloqalarning tobora ko'proq qismi raqamli platformalarga ko'chib o'tmoqda.

Global Market Insights ma'lumotlariga ko'ra, raqamli bank xizmatlarining global bozor hajmi 2023-yilda 10,9 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2024–2032-yillar oralig'ida yillik o'sish sur'ati 3 foizdan yuqori bo'lishi kutilmoqda [2]. Osiyo–Tinch okeani mintaqasi ushbu bozorning 69 foizdan ortiq qismini egallagan holda yetakchi o'rinni egallamoqda. Bunday sharoitda tijorat banklarining raqamli marketing strategiyalarini samarali qo'llash qobiliyati ularning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida raqamli marketing strategiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash, turli raqamli marketing kanallarining rentabelligini taqqoslash hamda bank sektori uchun eng samarali strategiyalarni aniqlashdan iborat. Ilmiy yangilikning ahamiyati shundaki, tadqiqotda tijorat banklari kontekstida raqamli marketing vositalarining kompleks tahlili amalga oshirilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli marketing samaradorligi masalasi ko'plab xalqaro tadqiqotlarda o'rganilgan. HubSpot tadqiqotiga ko'ra, raqamli marketingga sarflangan har bir dollar o'rtacha 5 dollar daromad keltiradi, elektron pochta marketingi esa 4000 foizgacha rentabellik ko'rsatkichini ta'minlashi mumkin [3]. Financial Brand jurnalining bank marketingi bo'yicha tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, hamjamiyat banklarining 80 foizdan ortig'i o'z marketing strategiyalarida raqamli kanallardan foydalanmoqda, bunda raqamli marketing umumiy marketing byudjetining 20–40 foizini tashkil etadi [4].

McKinsey konsalting kompaniyasining global raqamli banklar konferensiyasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, texnologik ko'rsatkichlarni ommaviy e'lon qilgan banklar investorlar uchun muhim natijalarga erishishda ustunlikka ega. 2021–2024-yillar oralig'ida texnologiya KPllarini oshkor qilish 150 foizga oshgan [5]. Deloitte tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, AQSh kompaniyalari o'rtacha ravishda daromadlarining 7,5 foizini raqamli transformatsiyaga sarflamoqda, bunda moliya xizmatlari sektori eng yuqori investitsiyalar ulushini qayd etmoqda [6].

Swaystack platformasining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, chakana iste'mol banklarida mijozlarni jalb qilishning o'rtacha xarajati (CAC) 561 dollarni, tijorat banklarida 760 dollarni, investitsiya banklarida esa 882 dollarni tashkil etadi [7]. First Page Sage tadqiqot guruhi (2024) turli marketing kanallari bo'yicha bank mijozlarini jalb qilish xarajatlarini tahlil qilib, SEO va kontent marketingining pulli reklama kanallariga nisbatan ancha past CAC ta'minlashini aniqlagan [8].

Sprout Social tadqiqotiga ko'ra, 2024-yilda brendlarning o'rtacha kunlik kiruvchi ishtiroki 2023-yilga nisbatan 20 foizga oshib, kuniga 70 tadan 83 tagacha yetgan [9]. Ushbu tendensiya bank sektorida ham kuzatilmoqda. American Bankers Association hisobotiga ko'ra, banklar eng ko'p foydalanadigan ijtimoiy platformalar Facebook (95%), LinkedIn (75%) va Instagram (62%) hisoblanadi [10]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, raqamli marketing tijorat banklari uchun muhim strategik vosita sifatida tan olingan bo'lsa-da, bank sektoriga xos xususiyatlarni hisobga olgan kompleks tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar sintezi va iqtisodiy samaradorlikni baholash usullariga asoslangan. Birlamchi ma'lumotlar sifatida xalqaro konsalting kompaniyalari (McKinsey, Deloitte), marketing platformalari (HubSpot, Mailchimp, Sprout Social) hamda moliya sektori tadqiqot tashkilotlari (Financial Brand, First Page Sage) tomonidan e'lon qilingan statistik hisobotlar va tadqiqot natijalaridan foydalanilgan.

Tahlil doirasida quyidagi raqamli marketing kanallari baholangan: ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM), elektron pochta marketingi, qidiruv tizimlarini optimallashtirish (SEO), kontekstli reklama (PPC) va mobil marketing. Har bir kanal uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) aniqlangan: investitsiyalar rentabelligi (ROI), mijozlarni jalb qilish xarajati (CAC), konversiya darajasi, ochilish va bosish darajalari (elektron pochta uchun), hamda ishtirok ko'rsatkichlari (ijtimoiy tarmoqlar uchun).

Iqtisodiy samaradorlikni baholashda ROI formulasi qo'llanilgan: $ROI = (\text{Daromad} - \text{Xarajat}) / \text{Xarajat} \times 100\%$. Bundan tashqari, mijoz umrbod qiymati (LTV) va CAC nisbati tahlil qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich bank sektorida optimal ravishda 1:5 nisbatni tashkil etishi lozim. Tadqiqotda 2023–2024-yillar ma'lumotlari asosiy tahlil davri sifatida belgilangan bo'lib, bu eng so'nggi tendensiyalarni aks ettirishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turli raqamli marketing kanallari tijorat banklari uchun sezilarli darajada farqli rentabellik ko'rsatkichlariga ega. DemandSage (2025) ma'lumotlariga ko'ra, elektron pochta marketingi sarflangan har bir dollar uchun 36–42 dollar daromad keltiradi, bu esa boshqa barcha raqamli marketing shakllari orasida eng yuqori ROI hisoblanadi [1]. Moliya xizmatlari sektorida elektron pochta xabarlarining o'rtacha ochilish darajasi 27,42 foizni tashkil etadi, xatti-harakatga asoslangan personalizatsiya esa bu ko'rsatkichni 42,36 foizgacha oshirishi mumkin [3].

Qidiruv tizimlarini optimallashtirish (SEO) tijorat banklari uchun uzoq muddatli investitsiya sifatida yuqori samaradorlik namoyish etadi. RankTracker (2024) tadqiqotiga ko'ra, moliya sektorida marketologlarning 61 foizi SEO ni eng muhim kiruvchi marketing ustuvorligi sifatida belgilaydi [8]. SEO orqali jalb qilingan mijozlarning konversiya darajasi 14,6 foizni tashkil etadi, bu an'anaviy chiquvchi usullardagi 1,7 foizlik ko'rsatkichdan qariyb 8 baravar yuqori. Qidiruv natijalarining birinchi sahifasida joy olgan moliyaviy saytlar 3–4 baravar ko'proq sifatli orqa havolalarga ega bo'lib, bu E-E-A-T (tajriba, ekspertiza, avtoritet, ishonchlilik) mezonlariga muvofiqlikni ta'minlaydi.



Kontekstli reklama (PPC) tez natija olishga imkon beruvchi, biroq nisbatan yuqori xarajatli kanal hisoblanadi. Softtrix ma'lumotlariga ko'ra, Google Ads o'rtacha 200 foiz ROI ta'minlaydi, moliya sohasi uchun pulli qidiruv reklamalarining konversiya darajasi esa 5,03 foizni tashkil etadi [2]. Biroq moliya sektorida ayrim kalit so'zlar (masalan, "sug'urta", "kredit") uchun bir bosish narxi 10–50 dollardan oshishi mumkin, bu esa umumiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval. Tijorat banklarida raqamli marketing kanallarining qiyosiy samaradorligi¹

Marketing kanali	O'rtacha ROI (foizda)	Konversiya (foizda)	CAC (AQSH dollari)	Asosiy afzalliklari
Elektron pochta marketingi	3600	5.5	12.69	Eng yuqori ROI, past xarajat
SEO	275	14.6	150-300	Uzoq muddatli natija, ishonch
Ijtimoiy tarmoqlar (SMM)	250	2-4	200-400	Brend xabardorligi, aloqa
PPC (Google Ads)	200	5.03	350-500	Tezkor natija, aniq maqsad
Mobil marketing	150	3-5	250-350	77 foiz faol foydalanuvchi

Bank sektorida mijozlarni jalb qilish xarajatlari (CAC) raqamli transformatsiya sharoitida muhim o'zgarishlarga uchramoqda. Swaystack hisobotiga ko'ra, kredit ittifoqlarida o'rtacha CAC 428 dollar atrofida bo'lsa, chakana banklar uchun bu ko'rsatkich 561 dollarni tashkil etadi [7]. Matomo platformasi tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, neobanklarning global bozor hajmi 2023-yilda 4,96 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, 2028-yilga kelib 10,44 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bu esa raqobatning kuchayishi va mijozlarni jalb qilish xarajatlarning oshishiga olib kelmoqda [7].

Focus Digital tahlili turli marketing kanallari bo'yicha CAC darajasining sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Organik kanallar (SEO, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta marketingi) pulli kanallarga (Google Ads, Meta Ads, televidenie reklamasi) nisbatan ancha past CACni ta'minlaydi. Tavsiya etilgan CAC:LTV nisbati 1:5 bo'lib, agar bu nisbat 1:2 yoki 1:3 gacha pasaysa, marketing kampaniyalarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi [8]. Pragmatic Coders tadqiqotiga ko'ra, yangi mijozni jalb qilish mavjud mijozni saqlab qolishga nisbatan 5–25 baravar qimmatga tushadi, bu esa mijozlarni ushlab turish strategiyalarining muhimligini yaqqol namoyon etadi.


Ijtimoiy tarmoqlar marketingi tijorat banklari uchun brend xabardorligini oshirish va mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Influencer Marketing Hub hisobotiga ko'ra, raqamli marketologlarning 38,5 foizi eng yuqori ROI ni aynan ijtimoiy tarmoqlar marketingidan olishini ta'kidlaydi [9]. American Bankers Association ma'lumotlariga ko'ra, banklar ijtimoiy tarmoqlardan aloqa (89%), ishga yollash (75%), moliyaviy savodxonlikni oshirish (71%), marketing va savdo (59%) hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish (57%) maqsadlarida foydalanadi [10].

Social Insider platformasining moliya va bank sektori bo'yicha benchmark hisobotiga ko'ra, ijtimoiy platformalar kesimida ishtirok darajalari sezilarli darajada farqlanadi. TikTok eng yuqori ishtirok ko'rsatkichlariga ega bo'lib (kichik kontent yaratuvchilar uchun 7,5 foizgacha), LinkedIn esa professional auditoriya bilan ishlashda ustunlik qiladi (o'rtacha 6,5 foiz). Facebook va Instagram barqaror, o'rtacha ishtirok darajalarini namoyish etadi. Shuningdek, moliya brendlari uchun tahliliy hujjatlar va maqolalar tasviriy yoki video kontentga nisbatan kuchliroq ishtirok hosil qilishi aniqlangan bo'lib, bu fikr yetakchiligi va bozor tahliliga asoslangan kontentning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

¹ Manba: DemandSage (2025), Softtrix (2024), First Page Sage (2024), Sprout Social (2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.d



TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINING KONSEPTUAL MODELII



Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

1-rasm. Tijorat banklarida raqamli marketing samaradorligining konseptual modeli²

Sun'iy intellekt (SI) tijorat banklarining raqamli marketing strategiyalarini tubdan o'zgartirmoqda. McKinsey Global AI Survey ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 46 foizi generativ SIdan muntazam foydalanishini ta'kidlagan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 34 foizni tashkil etgan [5]. IDC prognozlariga ko'ra, bank sektori 2024-yilda SIga taxminan 31,3 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya yo'naltiradi, bu esa uni dasturiy ta'minot va IT xizmatlaridan keyin SIga eng katta investitsiyalar kiritiladigan ikkinchi sohaga aylantiradi. Braziliyaning Bradesco banki tajribasi shuni ko'rsatdiki, SI texnologiyalarini joriy etish natijasida xodimlar unumdorligi 17 foizga oshgan va loyihalarni amalga oshirish muddatlari 22 foizga qisqargan [5].

UXDA platformasi tahliliga ko'ra, moliya xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniyalarning 52 foizi generativ SIdan faol foydalanmoqda. SAS tadqiqotlari natijalariga ko'ra esa banklarning qariyb 98 foizi generativ SIdan foydalanmoqda yoki yaqin kelajakda uni joriy etishni rejalashtirmoqda, bu esa boshqa tarmoqlar bilan solishtirganda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi [6]. McKinsey hisobotiga muvofiq, SI texnologiyalari banklar rentabelligini mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, firibgarlik holatlarini aniqlash va moliyaviy maslahat jarayonlarini optimallashtirish orqali 20 foizgacha oshirish imkoniyatiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida raqamli marketing strategiyalarining yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Elektron pochta marketingi eng yuqori rentabellikni ta'minlab, ROI ko'rsatkichi 3600 foizgacha yetadi. Undan keyingi o'rinlarda qidiruv tizimlarini optimallashtirish (SEO) — 275 foiz va ijtimoiy tarmoqlar marketingi — 250 foiz ROI bilan ajralib turadi. Kontekstli reklama (PPC) tezkor natijalar berish imkoniyatiga ega bo'lsa-da (o'rtacha 200 foiz ROI), uzoq muddatli istiqbolda organik kanallarga nisbatan kamroq samarali hisoblanadi. Mijozlarni jalb qilish xarajatlari (CAC) nuqtai nazaridan organik kanallar pulli kanallarga nisbatan 3–5 baravar tejamkor ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, raqamli marketing strategiyasida elektron pochta marketingi va SEOga ustuvor e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, chunki ushbu kanallar eng yuqori ROI va eng past CAC ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Ikkinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini marketing jarayonlariga keng integratsiya qilish zarur bo'lib, bu shaxsiylashtirish darajasini oshirish, marketing xarajatlarini kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish

² Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



imkonini beradi. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar marketingida LinkedIn va Facebook platformalariga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi, chunki mazkur platformalar moliya sektori uchun eng yuqori ishtirok va professional auditoriya darajasini namoyish etadi.

Raqamli marketing tijorat banklari uchun muhim strategik vosita bo'lib, uni to'g'ri rejalashtirish va samarali amalga oshirish sharoitida banklarning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni O'zbekiston tijorat banklari kontekstida davom ettirish va milliy bozor xususiyatlarini inobatga olgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. DemandSage. 151 Digital Marketing Statistics 2025 (Growth Trends). 2025. <https://www.demandsage.com/digital-marketing-statistics/>
2. Global Market Insights. Digital Banking Market Size & Share, Forecasts Report 2024-2032. 2024. <https://www.gminsights.com/industry-analysis/digital-banking-market>
3. HubSpot. Email Marketing Benchmarks by Industry. 2025. <https://blog.hubspot.com/sales/average-email-open-rate-benchmark>
4. The Financial Brand. Digital Marketing Trends Banks Should Know About for 2024. 2023. <https://thefinancialbrand.com/news/bank-marketing/digital-marketing-trends-banks-should-know-about-for-2024-169018>
5. McKinsey & Company. Digital Banking: Speed, Scale, and the Agentic Arms Race. 2025. <https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/banking-matters/digital-banking-speed-scale-and-the-agentic-arms-race>
6. Deloitte. Focusing on the Foundation: How Digital Transformation Investments Have Changed in 2024. 2024. <https://www.deloitte.com/us/en/insights/topics/digital-transformation/where-are-organizations-getting-the-most-roi-from-tech-investments.html>
7. Swaystack. How Financial Institutions Are Optimizing Customer Acquisition Costs & Driving ROI. 2025. <https://swaystack.com/2025/05/06/how-financial-institutions-are-optimizing-customer-acquisition-costs-and-driving-roi/>
8. First Page Sage. Average Customer Acquisition Cost (CAC) in Banking. 2024. <https://firstpagesage.com/seo-blog/average-customer-acquisition-cost-cac-in-banking/>
9. Sprout Social. Social Media Benchmarks by Industry in 2025. 2025. <https://sproutsocial.com/insights/social-media-benchmarks-by-industry/>
10. American Bankers Association. Banks Report Active Social Media Engagement. 2023. <https://www.aba.com/about-us/press-room/press-releases/banks-report-active-social-media-engagement>



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



ISBN 978-9910-8407-4-6



9 789910 840746